

Jo'rayeva Marjona

**Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi**

TILNING SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilni o'rganish oiladan boshlanishi, ota-onaning farzandiga tilni qay holatda o'rganishini singdirish hamda hozirgi kunda yosh avlodning chet tilini o'rganishga bo'lgan talabi haqida so'z yuritiladi. Tilning shakllanib borishi oilaning bag'rida, o'zaro yaqin insonlar bilan birga amalga oshadi.

Kalit so'zlar: til, oila, nutq, ota-ona, bola, Ona allasi, etnik jamoa, mahalla, ta'lim maskanlari, chet tili.

Til – keng ma'noga ega bo'lib, inson tug'ilganidan boshlab bu hodisaga duch keladi. Tilning shakllanishida, eng avvalo, oilaning o'rni katta. Oila bu jamiyatning bir bo'lagi hisoblanib, inson oilada o'rgangan til, olgan tarbiyasi bilan jamiyatga qo'shilib boradi. Hamma narsaning boshlanish nuqtasi bo'lganidek tilning inson hayotida muhimligi bu oiladan boshlanadi. Chunki bola dunyoga kelar ekan, avvalo, onasining alla ovozi eshitib katta bo'ladi. Onalar farzandi bilan alla orqali munosabatga kirishadi. “Alla”ning har bir inson hayotida tutgan o'rni beqiyos. O'zbek xalqining ardoqli yozuvchisi O'tkir Hoshimov shunday yozadi: “Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam o'z seviklisiga aytgan dil rozini dunyoning narigi chekkasidagi boshqa biro dam tushunmas, ehtimol, dunyoning bu chetida turib biro dam aytgan qo'shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa biro dam tushunmas, ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan eng oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa biro dam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan alladan dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bemalol orom oladi”.¹

“Alla” shunday sehrli ajoyibot bo'lganidek, oila ham insonning “ko'z ochib ko'rgani”. Ota-ona farzandiga tug'ilganidan tilning ma'nosi, mohiyati haqida so'z tushuntirmaydi, ular faqat tilni nutqda namoyon qiladi, xolos. Farzand til haqida uning aslida kelib chiqishi tarixini bilmasa-da, biroq kundalik hayotda undan doimiy foydalanadi. Ko'cha-ko'yda, jamoada ular o'zaro munosabatga kirishib boraveradi. Ota-onasidan yaxshi so'zlar, pand-nasihatlar, maqtoqlar eshitib turadi.

Bolada tilning shakllanib borishidagi yana bir muhim jamoalardan maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, mahalladagi bolalar guruhidir. Bog'cha yoshidagi bola o'z uyida o'rgangan, eshitgan so'zlar bilan birga, bog'chadagi bolalardan ham so'z o'rganadi. Ular turli xil shakllarga, turlicha voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildiradi.

¹ S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot 5-sinf darsligi. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2015. 57-bet.

“Olimlar tomonidan olib borilgan kuzatishlarda ma’lum bo’lishicha, go’dak leksikasidagi dastlabki lug’aviy birlik ota va ona ekan. Bolaning yarim yoshligi atrofida o’rgangan 10-12 ta so’zi uni qurshagan narsa-hodisalarga taqlidan paydo qilgan ma’nosiz tovushlar kompleksi bo’larkan. Bola miyasi biologik rivojlana borib, unda so’z ma’nolarini farqlash malakasi paydo bo’la boshlaydi. Bola 2 yoshga yetganda, uning leksionida ona tilining taxminan 300, 3 yoshga yetganda 1000, 4 yoshga yetganda, 2000 atrofida lug’aviy birligi shakllanar ekan”.² Demak, bola maktab yoshida til malakasi, dunyoni o’z ona tili vositasida milliy his eta boshlaydi. Etnik jamoalarning har biri o’z ona tili qandayligidan kelib chiqib, atrofidagi narsa va hodisalarni e’tirof etaib boshlaydi. Bola ilk bor oilasidan ona tilini o’rganar ekan, u bog’cha, maktab, mahalla jamoasidan ikkinchi tilni o’rganadi. Ya’ni tengdoshlari orasida bog’cha paytida ko’p hollarda rus, tojik, ingliz tilida gapiradigan yoki gaplarida boshqa tillarni qo’shadigan bolalar uchraydi, ular shu orqali ona tilidan tashqari bo’lsa ham tez o’zlashtirishga moyil bo’ladi. Yoki maktab o’quvchilariga darslik sifatida rus, ingliz, nemis, fransuz tillari o’tiladi. O’quvchi o’zining qiziqishlaridan kelib chiqib yoki kelajakdagi kasbiga o’zaro aloqador bo’lgan tilni chuqurroq o’rganishga kirishadi. Mahalla jamoasi ham xuddi shunday ta’sir o’tkazadi. Masalan, o’zbek tilida gapiradigan bolaning qo’shnisi rus bo’lsin, u bola har gal ko’chadan o’tayotganda yoki bir davraga tushib qolganda rus tiliga doir bo’lgan so’zlarni eshitaveradi. Ana shunday qo’shni bilan bo’lgan muloqotda bola so’zlarni eslab qoladi. Va aynan shu inson bilan suhbatlashish uchun ko’proq so’zlarni yodlay boshlaydi.

Etnik jamoa insonning nutqiy malakasida ikki yoki ko’p tillarni bilishiga sababchi bo’ladi. Bola ham atrofidagi turli xil tilda gaplashayotgan bola bilan ko’proq o’ynasa ko’p tillik malakasi shakllanadi.

“Buning yorqin misoli sifatida o’zining g’aroyib glottogoniya nazariyasi bilan mashhur bo’lgan akademik N.Ya. Marrning bolaligini eslash kifoya. U o’sgan mahallada rus, turk, tatar, gruzin, arman va b. etnik guruhlariga mansub aholi vakillari yashagan. Olim yoshligidanoq shu etnik guruhlar tilini bevosita o’rgangan. Bu uning keying kasbiy faoliyatida qo’l kelgan. U 40 dan ortiq tilni ham amaliy, ham nazariy bilgan poliglot bo’lgan”.³

Turli xil millat vakillarining tillarini bog’chada o’rganilib, mustahkamlanadi, maktabda esa bu tillar ilmiy-me’yoriy tahlil qilinadi. Inson qanchalik ko’p tilni bilsa, o’sha millatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, tarixini, dini bilan o’zaro yaqinlik his qiladi.

O’z ona tilini chuqur bilmagan har tomonlama mukammal o’rganmagan odam, afsuski, boshqa tilni o’zlashtirishga qiynaladi. Chunki tillar o’rtasidagi farq, ularni o’zaro qiyoslash uchun inson, avvalo, o’z ona tilini yetarlicha anglagan bo’lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, til insonning eng zaruriy vositalaridan biri bo’lib, uning shakllanib, boyib borishida oila muhim o’ringa ega. Qaysi til vakillari bo’lmasin, barchasi ona tilini o’z oilasidan, o’z yaqinlaridan o’rgangan, o’ziga tushuncha hosil qilgan bo’ladi. Bejizga: “Til - millatning ruhi”, - deyilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

² Berdialiyev Abduvali. “O’zbek sinxron sotsiolingvistikasi” Toshkent- 2019. 16-bet

³ Berdialiyev Abduvali. “O’zbek sinxron sotsiolingvistikasi” Toshkent- 2019. 16-17bet

1. Berdialiyev Abduvali. “O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi” Toshkent- 2019
2. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot 5-sinf darsligi. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2015.
3. Z.Aliqulov, S. Boymirzayeva. “Sotsiolingvistika”. Samarqand- 2009